



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



THE ROLE OF FAMILY EDUCATION IN THE PEDAGOGY OF THE UZBEK PEOPLE

Bahodirova Shahnoza¹

Oriental University

KEYWORDS

Educational process, family,
morality, behavior, child,
parents

ABSTRACT

Education is one of the most urgent issues of today. Thus, extensive reforms are being carried out in this regard in our country, and great importance is attached to it. Because we live in society, we witness the good and bad behavior of people and their bad morals. Family is considered the first root of the origin of human morals and upbringing. In this article, we have presented the influence of the family environment on child education, how important and important it is, and the opinions of thinkers and scientists on the issues of education.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7977718

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Faculty of Pedagogy and Psychology, Oriental University, Uzbekistan

O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDA OILAVIY TARBIYANING O'RNI

**KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Tarbiya jarayoni, oila, axloq,
xulq-atvor, farzand, ota-ona

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelayotgan bu tarbiya hisoblanadi. Shuningdek, yurtimizda bu borada keng islohatlar olib borilmoqda va bunga katta ahamiyat qaratilmoqda. Chunki biz jamiyatda yashar ekanmiz, insonlarning yaxshi va yomon xulq-atvorlariga va ulardagi illatli axloqlariga guvohi bo'lamiz. Tarbiyaning qandayligi va insondagi axloqning kelib chiqishining birinchi ildizi esa oila sanaladi. Biz bu maqolada oilaviy muhitning bola tarbiyasiga ta'siri, undagi tarbiya qanchalik muhim va ahamiyat kasb etishini va mutafakkir va olimlarning tarbiya masalarida yuritgan fikr-mulohazalari keltirilib o'tilgan.

Bugungi kunning eng zaruriy masalalaridan biri bo'lib kelayotgan yoshlar tarbiyasidir. Chunki tarbiya yoshlikdan, qolaversa ona qornidaligidanoq boshlanadi va shu yo'sinda farzand ulg'ayadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bu borada nutq so'zlaganlar; Tarbiya haqida so'z borar ekan, avvalo tarbiya o'zi nimaligi haqida bilib olishimiz kerak. Tarbiya- bu shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi sanaladi. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan tashkil topadi. Ammo tarbiya yosh va jins tanlamaydi. Tarbiya jarayoni bu uzluksiz jarayon sanaladi.

Bizga ma'lumki, xalqimiz oilani yuksak qadriyat sifatida qadrlaydi. Oila esa bu turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi va Oila jamiyat negizi hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiya avvalo oiladan boshlanadi. Bolani yoshligidan ongiga mehr-muruvvat, oqibat va sadoqat tushunchalari singdiriladi. Tarbiya o'chog'i bo'lgan oila bu ijtimoiy muhitning bir bo'laki hisoblanadi. Bu haqda Abdurauf Fitrat «Rahbari najot» asarida shunday yozgan edi: «Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar» Ma'rifatchilardan biri Rizouddin ibn Faxriddinning «Insonlarning dinu-dunyolarini tuzatmoq matlub bo'lsa, eng avval go'zal xulqqa ega bo'lmoq ila oilalarni tuzatingiz. Oilalar tuzalغانidan so'ng din ham, dunyo ham tuzaladi» degan gaplarida katta bir haqiqat ifodalangan. Bolalarning tarbiyasida tarbiya institutlarining o'rnini kattadir. Tarbiya institutlardan birinchi bu oiladir. Chunki xalqimiz oila ma'naviyatiga yuksak qadriyat sifatida alohida e'tibor bilan qaraydi. Oiladagi barcha insonlarga bolaga namuna bolib, bola ulardan o'rnak oladi va o'sha muhitda shakllanib boradi. Aynan shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni oladi, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob qoidalarini ham egallab

boradi. Ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar ona suti, oila a'zolari mehri va namunasi bilan bola xulqi, xatti-harakati mazmuniga singib boradi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan purhikmat so'zlar oila tarbiyasining negizini tashkil etadi. Oilaning vazifalaridan yana biri bu bo'sh vaqtni samarali tashkil etishdan iboratdir. Bosh vaqt jamiyatning ijtimoiy qadriyatlaridan biri sanaladi. Oilada bo'sh vaqtni faol tashkil etish, ya'ni kitobxonlik, mehnat, shuningdek, muzey, kino, teatr, konsert va tarixiy obidalarga, qadamjolarga sayohatlar uyushtirish va boshqalar oila barkamolligini ta'minlashning muhim vositasidir. Agar ota-ona bo'sh qoldimi ko'proq farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak. Farzandning bo'sh qolishi natijasida turli xil yomon xulq atvorlarlar yoki yomon xatti harakatlar yuzaga kelishi mumkun. Bekorga xalqimiz „bekorchidan hudo bezor“ deb aytilmaydi. Aslida, inson bo'sh qoldimi biror bir ish bilan shug'ullanishi kerak. Har bir ota-onaning vazifasiga oilada har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish, oilada bilimli, aql-zakovatli, uddaburon, jismoniy va ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash, oila an'analari, kasb-kori, shajarasining davomiyligini ta'minlash, bo'sh vaqtni unumli o'tkazishga erishish hamda giyohvandlik, maishiy nopoklik, axloqsizlik, nosog'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar kiradi. Oilada kim nima bilan band va qanday ishlar bilan shug'ullanishi bir-biriga ayon bo'ladi. Deylik, o'g'illardan biri uyga o'z vaqtida kelmaydigan odat chiqara boshladi. Buni, albatta, dastlab, aka-singillar yoxud opa-ukalar, keyinchalik esa ona sezib qoladi. Ota bilmasligi mumkin. Ona, aka yoki opalar o'sha noxush voqea va hodisaning, o'g'il yoki qizning nojo'ya xatti-harakat qilishi yoxud noto'g'ri yo'lga kirishining oldini olishlari zarur. Bu ishni u sababsiz kech kelgan birinchi kundanoq boshlash kerak.

O'zbek xalq pedagogikasida bolada yaxshi fazilatlarini shakllantirish uchun birinchi navbatda oila a'zolari ota-ona, aka-uka, opa-singil va yoshi kattalarga bo'lgan mehr-muruvvat hissida tarbiyalandi. Oilada bolaning axloqiy tarbiyalashda xalq donishmandlarining odob axloq to'g'risidagi gaplari, tarbiyali ertak va hikoyalar orqali bolaga tarbiya berilib boriladi. Shuningdek, oilada ota va onaning o'rmi haqida ham qator maqollar mavjud: «Ota - aql, ona - idrok», «Ota - bilak, ona - yurak», «Ona - daraxt, bola - meva», «Onangni quyosh bilsang, otangni oy bil», «Ota -bola uchun taxt yasas, baxt yasay olmas», «Otangga qiiganingni bolangdan ko'rarsan», « O'g'il-qiz yaxshi bo'lsa, ota-ona xursand. O'g'il-qiz dono bo'lsa elu yurt xursand».

Har bir o'zbek oilasida qarindoshlik munosabatlariga katta e'tibor qaratiladi. Buni quyidagi xalq maqollarida ko'rishimiz mumkin: «Borsang - qarindosh, bormasang - begona», «Do'st safarda bilinar, og'a-ini - kulfatda», «Oziqli ot horimas, qarindoshli qarimas», «Yeb-ichganda yot yaxshi, qayg'u kunda - qarindosh». «Inisi borning irisi bor», «Onangni kaftingda tutsang, singlingni boshingda tut», «Ota - xazina, aka-uka — tayanch» va h.k.

Bir qancha olimlar ham tarbiya haqida bir qancha fikrlarni bildirib o'tishgan. Shular

jumlasidan, taniqli etnograf olim hisoblangan I. Jabborovning ta'kidlashicha, o'zbek oilalarida yoshiga, jinsiga va tabiatiga qarab bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Masalan, o'g'il bolalarga yoshligidan otalar urug'ining davomchisi, merosxo'ri, oila ornomusi va iftixori, himoyachisi, qizlarga nisbatan ustun turadigan erkaklik fazilatlarini ongiga singdirib, qizlarga esa bo'lajak ona va uy bekasi vazifasini ado etuvchi shaxs sifatida tarbiya berishgan. Asta-sekin voyaga yetishi bilan o'g'il bola ota ta'sirida, qiz bola ona ta'sirida muayyan tartiblarga o'rgatila boshlangan. Odat bo'yicha bolalar 6-7 yoshidan mehnatga o'rgatilib, dastavval yengil ishlarni, 10-12 yoshidan boshlab og'ir xo'jalik ishlarini bajara boshlaganlar. Bola tarbiyasiga ota-ona, mahalla, jamoatchilik, alohida e'tibor bergan, ayniqsa, ularning odob-ikromli bo'lishi ko'pchilikning diqqat markazida turgan». Sharq olimlarining bir qancha asarlarda ham tarbiya masalalari to'g'risida ko'rishimiz mumkin; Kaykovusning «Qobusnoma»sidan tortib, Al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»), Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq». («Haqiqat sovg'alari») kabi jahonga mashhur asarlarida, Navoiyning o'lmas she'riyatida, Munis Xorazmiyning «Savdi ta'lim», Qori Niyoziyning «Hayot maktabi», Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarlarida Sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqiga xos bo'lgan ibratli tomonlar ochib berilganki, ular qalami orqali xalqimizning ota-onani hurmatlash, insoniylik, oqibat, mehr-shafqat, mehmondo'stlik, ma'rifatga chanqoqlik, onani (ayolni) ulug'lash, farzandga mehri va fidoyi bo'lish kabi fazilatlarini dunyoga tanilgan.

Bizning buyuk mutafakkirlarimizdan biri bo'lgan hamma sohalarda qalam tebratgan ensiklopedist olim Abu Ali Ibn Sino buyuk muallim edi. Uning „Donishnoma“ asari necha yuz yillar davomida tarbiyachilar uchun qo'llanma bo'lib kelgan. «Donishnoma»da ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, insonning ruhiyati, axloq va odob kabi masalalar to'g'risida chuqur fikrlar ifodalangan. «Donishnoma»da ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, insonning ruhiyati, axloq va odob kabi masalalar to'g'risida chuqur fikrlar ifodalangan. Uning fikricha, ota bolalar tarbiyasida qattiqqo'l va hatto lozim bo'lsa, jazo berishga qadar ta'sir ko'rsatuvchidir. Uning „Ayollarning yaxshi sifatleri“ kitobining shunday bo'limida onalarning halolligi, o'z juftiga itoatkorligi, kamtarinligi, axloqiy sifatleri ulug'langan va onaning oila mustahkamligida va bola tarbiyasi bilan shug'ullanishida yordamchi snanaladi. Biz yana bundan tashqari ko'pgina olimlarning tarbiya borasidagi bildirgan fikrlarini va tarbiya va odob haqida asar, hikoya va she'rlarini aytishimiz mumkin. Shuni yana ta'kidlab o'tamanki, avvalo biz va yoshi kattalar yosh avlodning tarbiya masalarga ma'sulyat ila qaramoqligimiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Toshov.- T.: "EFFECT-D". 2022.-216b /"Professional ta'lim muassasalarida ma'naviy- ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish " O'quv qo'llanma.
2. Mutalipova. M.J. „Xalq pedagogikasi" 2015 – yil.
3. Z.K. Ismoilova „ Pedagogika" 2007